| <b>Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li</b>                                                                                                                                   |     |
| Mahalliy budjet daromadlarining nazariy va ilmiy asoslari .....                                                                                                         | 460 |
| <b>O'lokulova Feruza Mansurovna</b>                                                                                                                                     |     |
| Kambag'allikni qisqartirish – aholi turmush farovonligini ta'minlashning muhim omili .....                                                                              | 463 |
| <b>Usmanov Baxodir Baxtiyorovich</b>                                                                                                                                    |     |
| Raqamli marketingni rivojlantirish zaruriyati .....                                                                                                                     | 469 |
| <b>Xalmuxamedova Zebaxon Babaxanovna</b>                                                                                                                                |     |
| Tijorat banklari o'rtasidagi raqobatni rivojlantirish orqali fond bozorida aksiyalar narxini barqarorligini ta'minlash istiqbollari .....                               | 473 |
| <b>M. Yuldosheva</b>                                                                                                                                                    |     |
| Konchilik sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmlarining ilmiy-nazariy asoslari .....                                                     | 480 |
| <b>Kurbanova Mehriniso Nematjanovna</b>                                                                                                                                 |     |
| O'zbekistonda banklar moliyaviy xizmatlari va ular sifatining amaldagi holati tahlili .....                                                                             | 487 |
| <b>Mirzayev Mirza Abdullayevich</b>                                                                                                                                     |     |
| Oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy samaradorlikning raqobatbardoshligini instituttsional tahlil qilish mexanizmi.....                                               | 492 |
| <b>Saydullayeva Saodat Abdumajidovna</b>                                                                                                                                |     |
| Integrasiya sharoitida to'qimachilik sanoatining rivojlanishi .....                                                                                                     | 499 |
| <b>Ziyayeva Muhtasar Mansurdjanovna</b>                                                                                                                                 |     |
| Auditorlik tekshiruvini tashkil etish va o'tkazish jarayonlarini takomillashtirish .....                                                                                | 503 |
| <b>Karamatova Noiba Husnitdinovna</b>                                                                                                                                   |     |
| Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlarini .....                                                                                             | 510 |
| <b>Mamatov Mamajan Axmadjonovich</b>                                                                                                                                    |     |
| Экономическое сознание и экономическое мышление: теоретический анализ.....                                                                                              | 517 |
| <b>Пардаев Мамаюнус Каршибаевич, Мухаммедов Мурод Мухаммедович</b>                                                                                                      |     |
| O'zbekiston respublikasi tijorat banklari tomonidan qurilish korxonalarini kreditlashni takomillashtirish yo'llari .....                                                | 522 |
| <b>Sultanov Baxram Begdullayevich</b>                                                                                                                                   |     |



|                                                                                                                                                           |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Роль искусственного интеллекта в современных технологиях<br>медиаобразования в высших учебных заведениях.....                                             | 526 |
| <b>Самигова Гуландом Абдужаббаровна</b>                                                                                                                   |     |
| Talabalarga moliyaviy yordam dasturlari va ularning ta'lim sifatiga ta'siri .....                                                                         | 534 |
| <b>Mirzayeva Muhlisa Ubaydullo qizi</b>                                                                                                                   |     |
| Mintaqaviy investitsion jozibadorlik va investitsion siyosat: nazariy talqin .....                                                                        | 539 |
| <b>Muminov Akmal Tulkunovich</b>                                                                                                                          |     |
| Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida oliy ta'lim tizimining ta'siri .....                                                                          | 543 |
| <b>Nasimov Adiz Azamat o'g'li, Baxtiyorova Jasmina Jasurovna, Axrorov Zarif Oripovich</b>                                                                 |     |
| Respublikada fermer xo'jaliklarga xizmat ko'rsatishni rivojlantirish va<br>agroxizmatlar bozorini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari ..... | 548 |
| <b>Shukurov Ilxom Safarboyevich</b>                                                                                                                       |     |
| Turli mamlakatlarda oliy ta'limni moliyalashtirish yo'llari .....                                                                                         | 555 |
| <b>Umarova Moxigul Maxmayunus qizi</b>                                                                                                                    |     |
| Dehqonchilikni innovatsion asosda rivojlantirishning xorijiy tajribasi .....                                                                              | 560 |
| <b>Yuldashev G'iyos Turabekovich</b>                                                                                                                      |     |
| Tijorat bank xizmat turlarini islomiy bank xizmatlari orqali rivojlantirish istiqbollari .....                                                            | 564 |
| <b>Bayjanova Gozsal Sarsengaliyevna</b>                                                                                                                   |     |
| Qishloq xo'jaligi mahsulotini baholash va hisobga olishning uslubiy jihatlarini takomillashtirish .....                                                   | 570 |
| <b>Boltayev Abror Sayitmuradovich</b>                                                                                                                     |     |
| Секреты интересного урока в начальной школе .....                                                                                                         | 577 |
| <b>Гараева Олеся Владимировна</b>                                                                                                                         |     |
| Iqtisodiyotni barqaror rivojlanishda yashil iqtisodiyotning o'rni .....                                                                                   | 580 |
| <b>Ibragimova Gulchehra Toxirovna</b>                                                                                                                     |     |
| Mahsulot va xizmatlarni raqamli transformatsiyasini amalga oshirish algoritmi .....                                                                       | 584 |
| <b>Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, Bobojonov Azizjon Babaxanovich, Abdurakhmonov Abdumalik Abdurashidovich</b>                                           |     |
| O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi mamlakatda yashirin iqtisodiyot<br>ulushini qisqartirish vositasi sifatida .....                                | 591 |
| <b>Nabiyev Feruz Nurmurodovich</b>                                                                                                                        |     |



# KORXONALAR INNOVATSION FAOLIYATIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MUHIM YO'NALISHLARI

**Yuldasheva Kamola Miraliyevna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Maqolada mamlakatimiz ishlab chiqarish korxonalarining raqamli transformatsiyasini boshqarish masalalari, uning rivojlanish yo'nalishlari, raqamli transformatsiyani amalga oshirishning korxona innovatsion faoliyatini takomillash-tirishdagi afzalliklari ochib beriladi, korxonalarda raqamli transformatsiyani amalga oshirish bo'yicha yo'nalishlar taklif qilinadi.

**Kalit so'zlar:** raqamlashtirish, innovatsion faoliyat, innovatsion infratuzilma, boshqaruv samaradorligi, raqamli egizaklar.

**Abstract:** The article reveals the issues of managing the digital transformation of the production enterprises of our country, its development directions, the advantages of the implementation of the digital transformation in improving the innovative activity of the enterprise, the directions for the implementation of the digital transformation in the enterprises are proposed.

**Key words:** digitization, innovative activity, innovative infrastructure, management efficiency, digital twins.

**Аннотация:** В статье раскрываются вопросы управления цифровой трансформацией производственных предприятий нашей страны, направления ее развития, преимущества реализации цифровой трансформации в повышении инновационной активности предприятия, направления реализации цифровой трансформации. предложены преобразования на предприятиях.

**Ключевые слова:** цифровизация, инновационная деятельность, инновационная инфраструктура, эффективность управления, цифровые двойники.

## KIRISH

“Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli Farmonining eng asosiy vazifasi “Raqamli O‘zbekiston–2030” konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etish bo‘lib, unda barcha soha va tarmoqlarni kompleks transformatsiya qilish masalasi qamrab olingan <sup>[1]</sup>. Zamonaviy iqtisodiy sharoitlar, raqamli texnologiyalarning iqtisodiyotning barcha sohalariga jadal kirib kelishi natijasida xo‘jalik yurituvchi subyektlar an‘anaviy ishlab chiqarish jarayonlari va modellarini o‘zgartirishga majbur bo‘lmoqdalar. Shu sababli korxo-nalarning boshqaruv tizimi ham raqamli transformatsiya sharoitida innovatsion yondashuv va texnologiyalarga asoslangan o‘zgarishlarga duch kelmoqda. Aynan xo‘jalik yurituvchi subyektlar boshqaruv faoliyatidagi raqamli innovatsiyalar korxonaning strategik istiqbolda omon qolishi va rivojlanishini ta‘minlaydi.

Raqamli transformatsiya ishlab chiqarishning turli darajalarida innovatsion texnologik yechimlarni faol ishlab chiqish va joriy etishni oldindan belgilab berdi. Raqamli innovatsiyalar korxonalarning o‘zgaruvchan biznes muhitida ishlashi uchun asosiy (qo‘llab-quvvatlovchi) vositalarga aylanmoqda. O‘zgarishlar boshqaruv tizimlariga, raqobat qoidalari va mexanizmlariga, qo‘shimcha qiymat zanjirlarini shakllantirish jarayonlariga va boshqalarga ta‘sir ko‘rsatdi. Tarmoqlar va faoliyat turlari strukturasi o‘zgarishi va chegaralarining yo‘qolishi – o‘zaro ta‘sir jarayonlarining o‘zgarishi, an‘anaviy tamoyillar va yondashuvlar va ularni yangilari bilan almash-tirish, lekin raqamlashtirish sharoitida innovatsion rivojlanish imkoniyatlarining paydo bo‘lishi va ularning mav-judlari bilan integratsiyalashuviga olib keldi. Korxonani strategik boshqarish kompleks strategiyani ishlab chi-qishni taqozo etadi, uning maqsadi mahalliy sanoat mahsulotlarining global raqobatbardoshligini ta‘minlashdan iborat. Ayni paytda kun tartibida strategiyaning yangi mazmuni – raqamli strategiya bo‘lib, uni ishlab chiqish uchun bir qator shartlar – internet tarmog‘ining mavjudligi, raqamli xizmatlar, mobil qurilmalar va boshqa raqamli texnologiyalardan foydalanish mavjud. Ushbu o‘zaro ta‘sirlarda raqamli texnologiyalarga asoslangan standart lar va algoritmlar tobora muhim rol o‘ynay boshladi. Sanoat korxonalarini raqamlashtirish faoliyat samarador-ligini oshirishga, ya‘ni ishlab chiqarish hajmining oshishi, mahsulot tannarxining pasayishi, mehnat unumdorli-gining oshishi va boshqaruv xatolarining kamayishiga olib keladi.





## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ishlab chiqarishdagi innovatsion faoliyat va sanoatdagi raqamli transformatsiyalar bilan bog'liq masalalar ko'plab mahalliy va xorijiy mualliflarning tadqiqot mavzusiga aylangan. Jumladan, fanga ilk marotaba innovatsiya tushunchasini kiritgan Y.Shumpeterning ilmiy tamoyillariga ko'ra, innovatsiya tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish omillarining yangi tashkiliy-boshqaruv birikmasidir <sup>[7]</sup>.

B.Tvissning fikricha, "Innovatsiyani yangi ixtiro yoki yangi g'oyaning iqtisodiy ma'no kasb etishi jarayoni" [9] hisoblanadi.

Oslo qo'llanmasining (2018-yil) 4-nashrida (OECDning innovatsion faoliyatni rejalashtirish va hisobga olish uslubiy vositasi) innovatsiya "avvalgisidan sezilarli darajada farq qiladigan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot (jarayon)" <sup>[11]</sup> sifatida tavsiflanadi.

Shuningdek, MDH mamlakatlarida ushbu masalani tadqiq qilgan S.Agarkovning fikricha esa innovatsion faoliyatni rivojlantirish va boshqarish vositalari to'plami innovatsion siyosat bo'lib, u davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari va xo'jalik yurituvchi subyektlarning fan va texnika sohasidagi maqsadlari, yo'nalishlari, faoliyat turlarini belgilaydi <sup>[2]</sup>.

Mahalliy iqtisodchi olimlarimizdan Sh.Otajonov tomonidan ham iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish yo'liga o'tkazish, xususan, sanoat korxonalarini innovatsion boshqarishda inson omilining ahamiyatini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilgan <sup>[4]</sup>.

Zamonaviy innovatsion siyosatning asosiy elementi bu raqamlashtirishdir. Raqamli iqtisodiyotning jamiyat, sanoat va jamiyat hayotiga ta'sirini baholash uchun raqamli iqtisodiyot, raqamlashtirish va raqamli texnologiyalarning ta'riflarini berish kerak.

"Raqamli iqtisodiyot" atamasi olim N.Negroponte tomonidan 1990-yillar boshida barcha jarayonlar raqamli shaklda amalga oshiriladigan yangi rivojlanish paradigmasining innovatsion xarakteristikasi sifatida kiritilgan <sup>[6]</sup>.

Shuningdek, P. Parviainen raqamlashtirish analog ma'lumotlarni (ayniqsa, rasm, video va matndan so'nggi foydalanishda) raqamli shaklga aylantirish harakati yoki jarayoni ekanligini ta'kidlaydi <sup>[5]</sup>.

D.Terrarning ta'kidlashicha, raqamlashtirish jarayoni tashkilot boshqaruvidagi o'zgarishlarni o'z ichiga oladi, turli fikrlashni o'z ichiga oladi, innovatsiyalarni va yangi biznes modellarini ishlab chiqishni rag'batlantiradi, shu jumladan, aktivlarni raqamlashtirish va foydalanuvchi tajribasini yaxshilash uchun texnologiyalardan foydalanishni ko'paytirish, tashkilot xodimlari, mijozlar, tovar yetkazib beruvchilar, hamkorlar va aksiyadorlar <sup>[10]</sup>.

Mamlakatimizda bu masalada tadqiqot olib borgan J.Tuxtabayevning fikrlariga ko'ra raqamli iqtisodiyotda innovatsion faoliyat sanoat korxonalarida ishlab chiqarish munosabatlari, xo'jalik yuritish mexanizmi, shakllari va mehnatni tashkil etishning intellektual jarayonlarida namoyon bo'ladi <sup>[8]</sup>.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Raqamlashtirishning innovatsion jarayonlardagi ahamiyatini ochib berish uchun maqolada iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarni o'rganish, qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish usullaridan keng foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Globallashtirish sharoitida dunyoning aksariyat davlatlarining ishlab chiqarish va iqtisodiy tizimlari transformatsiya va modernizatsiyani boshdan kechirmoqda. Bu borada yetakchi xalqaro tendensiyalaridan biri bu raqamlashtirish bo'lib, uni jahon iqtisodiyoti yetakchilari iqtisodiy faoliyatning barcha sohalarida innovatsion o'zgarishlarning asosiy yo'nalishi deb bilishadi. Raqamlashtirish raqamli shaklda taqdim etilgan barcha ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Mamlakatdagi sanoat korxonalarini raqamlashtirish deganda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun axborot va raqamli texnologiyalar, reinjiniring, katta ma'lumotlarni tahlil qilish usuli orqali mavjud ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish tushuniladi. Raqamli transformatsiya, o'z navbatida, korxonalarning biznes-jarayonlarini ularni amalga oshirish uchun raqamli vositalardan foydalangan holda keng qamrovli qayta tashkil etishni talab qiladi, bu esa ularning xususiyatlarini rivojlantirish va takomillashtirishga hamda tubdan yangi sifatlarga ega mahsulotlar ishlab chiqarishga olib keladi.

Korxonalarda raqamli transformatsiyani amalga oshirish turli loyihalar va turli tadbirlarni o'z ichiga oladi:


- ichki ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, shuningdek, korxona arxitekturasini, ma'lumotlar va IT aktivlarini boshqarishni joriy etishga qaratilgan raqamlashtirishni an'anaviy joriy etish;
- raqamli jarayonlar amalga oshiriladigan korxona arxitekturasining yangi tarkibiy qismlarini ishlab chiqish va shakllantirish (raqamli xizmatlar, murakkabroq arxitektura);
- raqamli aloqa almashinuv uchun tashqi ishtirokchilar va hamkorlarni jalb qilish;
- ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirishni doimiy ravishda oshirish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish, korxonalarni raqamli tarmoqqa ulash va boshqalar.



Korxonalarning raqamli strategiyalari quyidagi transformatsion va boshqa loyihalarni amalga oshirishni ustuvor vazifa sifatida belgilab olishi kerak:

- raqamli axborotni joriy etish;
- raqamli infratuzilmani tashkil etish;
- kadrlarni rivojlantirish, o'qitish va qayta tayyorlash institutlarini shakllantirish uchun raqamlashtirish va hokazo.

Raqamli transformatsiya sanoat sohasini innovatsion rivojlantirishning asosiy tendensiyasi bo'lib, faqat zamonaviy sanoat ishlab chiqarishi faoliyatning barcha sohalarida raqamli texnologiyalardan foydalanishiga asoslanadi. Bugungi kunda korxonalarda ishlab chiqarishni nazorat qilish va boshqarishdan biznes-reja va raqamli hujjat aylanishigacha bo'lgan jarayonlar raqamli texnologiyalar, ma'lumotlar va raqamli infratuzilma yordamida amalga oshiriladi (1-rasm).



1-rasm: Sanoat korxonalarining raqamli transformatsiyasi yo'nalishlari<sup>1</sup>

Bugungi kunda sanoat korxonalari texnologik jarayonlarni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etish muammosini muvaffaqiyatli hal qildi. Bu tizimlar ishlab chiqarish jarayonlarini muayyan algoritmlar yordamida boshqarish, shuningdek, zamonaviy boshqaruv tizimlari yordamida ishlab chiqarishni boshqarish va avtomatik rejimda operatsiyalarni bajarish imkonini beradi. Agar ishlab chiqarishda texnologik boshqaruv vazifalari jarayonlarni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etish orqali amalga oshirilsa, ishlab chiqarishni to'liq boshqarish ko'p jihatdan hali avtomatlashtirilmagan. Ushbu vazifalar ro'yxatiga quyidagilar kiradi: rejalashtirish, ishlab chiqarish rejalarining bajarilishini nazorat qilish, ishlab chiqarish faoliyatini optimalashtirish va nazorat qilish, ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish samaradorligini nazorat qilish, texnologik uskunalarning xavfsizligi va ishonchligi, xodimlarning xavfsizligi, ekologiya va boshqalar.

Ma'lumki, hozirda ishlab chiqarishdagi deyarli barcha vazifalar turli xil dasturiy vositalar yordamida korxona xodimlari tomonidan hal qilinadi. Ushbu vazifalarni biznes jarayonlarini avtomatlashtirishda hal qilinayotgan masalalarga qiyosan o'rganib chiqsak, ishlab chiqarishni boshqarish vazifalarining asosiy qismi qo'lda bajariladi, deb aytishimiz mumkin. Raqamli transformatsiya ushbu muammolarni hal qilishni avtomatlashtirilgan tarzda tashkil etish imkonini beradi. Haqiqiy vaqtda ishlab chiqarish ma'lumotlarining mavjudligi, axborot arxivi va

1 Muallif ishlanmasi.



oldingi tajribaga ega bo'lgan korxona rahbariyati boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish uchun ushbu tahliliy ilovalardan foydalanish imkoniyatiga ega.

Bundan kelib chiqadiki, raqamli transformatsiya ishlab chiqarish faoliyati va ish joylariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, xavfli hududlarda bajariladigan ishlar sonini kamaytiradi, xodimlarni katta hajmdagi kundalik ishlardan ozod qiladi, ularga xavfsizlik, samaradorlik va ishonchlilikni oshirishga e'tibor qaratish imkonini beradi.

Tadqiqot doirasida "raqamli egizak" (digital twin) ni yaratish asosida sanoat sektorini raqamli transformatsiya qilish usuli ham samara beradi, degan xulosaga keldik. Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi bilan raqamli shaklda tobora ko'proq ma'lumotlardan foydalanilmoqda va buning natijasida korxona faoliyatini raqamli shaklda to'liq aks ettirish imkoniyati paydo bo'ladi – biz raqamli ko'rinishda (raqamli egizak) raqamli nusxani olamiz. Ushbu raqamli nusxani shakllantirish uchun raqamli texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarishni raqamlashtirish jarayonlarini ifodalaydi. Raqamli nusxalar ishlab chiqarish hayotiy jarayonning barcha bosqichlari uchun, dizayndan foydalanish va ta'mirlashgacha yaratiladi. Bunda korxonaning barcha biznes-jarayonlari qog'oz hujjat va dasturiy ta'minot o'rniga raqamli nusxa ma'lumotlaridan foydalangan holda tezlashtiriladi va avtomatlashtiriladi. Haqiqiy jarayonlarni raqamli nusxalar bilan ko'rsatish yanada aniq va to'liq bo'lishi bilan yangi samarali biznes jarayonlari shakllantiriladi va amalga oshiriladi. (2-jadval)

**2-jadval: Sanoat korxonalarida raqamli egizakdan foydalanishning iqtisodiy samardorligi<sup>2</sup>**

| Samaradorlik ko'rsatkichi | Raqamli egizakdan foydalanish samardorligi                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |
|---------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Boshqaruv jarayoni        | - ishlab chiqarish jarayonlari haqidagi ishonchli ma'lumotlar orqali korxona umumiy boshqaruv modelini yaxshilash;<br>- faol va samarador boshqaruv qarorlarini qabul qilish;<br>- ishlab chiqarish tannarxining pasayishi.                                                                                                                     |
| Mahsulot sifati           | - mahsulot umumiy sifatining yaxshilanishi;<br>- mahsulot nuqsonlarini barvaqt aniqlash va prognozlashtirish;<br>- virtual sinovlar orqali tovar zaxirasining ishonchliligi, miqdori, natijadorligini tekshirish.                                                                                                                               |
| Loyihalash                | - loyihalashdagi xatoliklarni oldindan aniqlash orqali xarajatlarni kamaytirish;<br>- loyiha yaratuvchilari va bajaruvchilar o'rtasidagi samarali integratsiyani ta'minlash;                                                                                                                                                                    |
| Sinovdan o'tkazish        | - innovatsiyalarni virtual sinovdan o'tkazish hisobiga xarajatlarni kamaytirish;<br>- ekspluatatsiya qilishning virtual ssenariylarini ishlab chiqish;<br>- innovatsion yechimlarning natijasini bozor talablariga mos tarzda real vaqt rejimida virtual sinovdan o'tkazish;<br>- mahsulotning bozordagi istiqbollarini oldindan aniqlab olish. |
| Foydalanish               | - ekspluatatsiya ma'lumotlariga asoslangan dasturlarni yangilash asosida takomillashtirishni samarali amalga oshirish;<br>- ehtiyot qismlar va xom ashyoni raqamli ro'yxatga olish orqali ular haqidagi izoh va kafolatlangan e'tirozlarni kuzatib boorish;<br>- ishonchlilikni oshirish orqali kafolatlangan to'lovlar miqdorini kamaytirish   |

Shunday qilib, raqamli transformatsiya ma'lumotlarni raqamli hujjatlashtirishdan raqamli egizaklar va dasturiy ta'minotdan olingan ma'lumotlarga tayanadigan yangi biznes jarayonlarni shakllantirishgacha bo'lgan butun jarayonni qamrab oladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Fan-texnika taraqqiyotining eng muhim yutuqlarini, jahon tajribasining eng ilg'or shakldagi usul va texnologiyalarni ishlab chiqarishga yuqori darajada joriy etish orqali sanoatning barcha tarmoqlarini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb talabidir. Shu sababli, raqamli ishlab chiqarishning rivojlanishi masalasi nafaqat nazariy jihatdan tadqiq etilishi, balki tizimli ravishda hal qilinishi kerak bo'lgan ko'plab boshqaruv masalalarini yuzaga keltirmoqda. Biz ham tadqiqotimiz doirasida sanoat sektorini raqamli o'zgartirish jarayonlarini o'rganish natijalariga ko'ra quyidagi xulosa va takliflarni bildiramiz:

- sanoatni strategik boshqarish uchun kompleks strategiyani ishlab chiqish zarur, uning maqsadi mahalliy sanoat sektorining global raqobatbardoshligini shakllantirish, mazmuni esa raqamli transformatsiya bo'lib, uni amalga oshirish uchun bir qator shartlar mavjud: Internet mavjudligi, raqamli xizmatlar, raqamli texnologiyalardan foydalanish, mobil qurilmalar va boshqalar;
- hozirgi bosqichda sanoat sektorini raqamli transformatsiya qilish yo'nalishlari aniqlanib, sanoat sektorini raqamli transformatsiya qilishda "raqamli egizaklar" modelining iqtisodiy samardorligi ochib berildi.



Xulosa qilib aytganda, agar korxonalarda ilmiy asoslangan va puxta o'ylangan raqamli muhit yaratilsa, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish, texnologiya va uskunalarni tabiiy, iqlim va resurs xususiyatlariga maksimal darajada moslashtirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish tizimini takomillashtirish imkonini beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoni.
2. Агарков С.А., Кузнецова Е.С., Грязнова М.О. Инновационный менеджмент и государственная инновационная политика: учеб. пособие. Москва: Академия естествознания, 2011. – Б.156.
3. Machekhina O. Digital of education as a trend of its modernization and reforming / O. Machekhina // Revista Espacios, 2017. –№38(40). -pp. 26–31.
4. Отажонов Ш.И. Инновация фаолияти инфратузилмасини бошқаришнинг ташкилий-иқтисодий механизмлари самарадорлигини ошириш: и.ф.д. (DSc) дисс. авторефер. –Т.: ТДИУ, 2018, -Б.95;
5. Parviainen, P. Tackling the digitalization challenge: how to benefit from digitalization in practice. / P. Parviainen, M. Tihinen, J. Kääriäinen, S. Teppola // IJISPM, 2017. –№5(1) – pp.63–77
6. Прохоров А., Коник Л. Цифровая трансформация. Анализ, тренды, мировой опыт. Москва: ООО "Альянс Принт", 2019. – Б.368.
7. Schumpeter J. A. Theory of economic development. –М.: Progress, 1982.– p. 105.
8. Тухтабаев Ж.Ш. Рақамли иқтисодиётни ривожлантириш шароитида саноат корхоналарида меҳнат самарадорлигини оширишнинг ташкилий-иқтисодий механизми. Монография. –Т., 2020. – Б.170.
9. Twiss B. Management of innovations. – М.: Economics, 2009. – p. 57.
10. Terrar D. What is Digital Transformation? [Электронный ресурс] / D. Terrar// Режим доступа: <http://www.theagileelephant.com/what-is-digital-transformation>.
11. European Commission. URL: <https://ec.europa.eu>.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 2**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.